

**REJALASHTIRMOQ FE'LINING O'ZBEK TILI
IZOHLI LUG'ATIDAGI TALQINI**

Abidova Zilola Xabibullayevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola rejalashtirmoq fe'lining o'zbek tili izohli lug'atidagi talqini o'rganishga bagishlangan. Muallif rejalashtirmoq tafakkur fe'lini "O'zbek tilining izohli lug'ati"da eng ko'p uchraydigan izohlash uslubi ma'nodoshlardan foydalanish, so'zning ma'nosini to'laqonli ochib berish uchun uning ma'nosini imkon qadar to'liq qamrab olgan, kontekstual ma'no xususiyatlari ham o'xshash bo'lgan sinonimlarga murojaat qilishda, leksemaning ma'nosiga variantdosh, o'rindosh so'zlarni sanab o'tishida izoh va sharhlar berilishida, amaliy jihatdan qaraganda lug'at foydalanuvchisi matn tuzishda, tahrir yoki tarjima qilishda takrorlarni shu ma'nodoshlar orqali bartaraf qila olishda munosabatini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: fe'l, tafakkur fe'llari, izohli lug'at, lug'aviy ma'no, kontekstual ma'no, sinonimiya, polisimiya.

Abstract: This article is devoted to the study of the interpretation of the verb to plan in the Uzbek language explanatory dictionary. The most common method of interpretation of the verb to plan by the author in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" is the use of cognates, in order to fully reveal the meaning of the word, referring to synonyms that cover its meaning as fully as possible, and have similar contextual features, as well as variants and substitutes for the meaning of the lexeme. when listing words, providing explanations and comments, from a practical point of view, the user of the dictionary expresses his attitude when creating a text, editing or translating, eliminating repetitions through these synonyms.

Key words: verb, mental verbs, explanatory dictionary, lexical meaning, contextual meaning, synonymy, polysemy.

KIRISH

Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan izohli lug'atlar bir necha vazifalarni bajara olishi sabab yuqori ahamiyatga molik. Birinchidan, bunday lug'at tildagi faol, zamonaviy leksik sathni to'laqonli qamrab olishi kerak. Ikkinchidan, leksema izohlari ularning ayni damda aktual bo'lgan ma'nolari bilan birga eskirgan ma'nolarini ham qamrab oladi. Shu jihatdan izohli lug'at tarixiy ma'nolarni qamrab oladigan manba bo'lib gavdalanadi. So'zning mustaqil lug'aviy ma'nosi asosiy yoki ko'chma bo'lishini bilamiz. Izohli lug'atlar mana shunday ma'no qavatlanishi, kontekstual ma'no ko'chishi kabi polisemiya holatlarini ham ko'rsatib berish vazifasini bajaradi. Tildagi leksik birliklar birikuv imkoniyatiga ega, ma'noning birikishiga ko'ra mustaqil yoki

nomustaqil bo'la oladi. Izohli lug'atlar o'z tarkibidagi misollar vositasida so'zning predmet-mantiqiy (mustaqil) birikuvini, hamda lisoniy omillar bilan cheklangan (nomustaqil) birikuvini ham oshkor qiladi. Frazalar va sintaktik qurilmalar ana shunday nomustaqil birikuvga misol bo'la oladi¹. Bundan kelib chiqadiki, izohli lug'atlar qisman frazeologik lug'at vazifasini ham o'taydi. Leksemaning nutqda bajaradigan semantik vazifasi uni nominativ yoki ekspressiv-sinonimik bo'la olishini ko'rsatadi. Izohli lug'atdagi misollar orqali to'g'ridan-to'g'ri atash ma'nosi bilan birga uning matn tarkibida yuzaga chiqqan konnotativ, stilistik bo'yoqdorlikka ega semalarini ko'rsatish mumkin. Umumiy hisobda izohlar so'zning avtonom ma'nosini, ya'ni hech qanday boshqa leksik birlikka bog'liq bo'lmagan mustaqil ma'nosini qamraydi. Shu bilan birga, so'zlarning nisbiy ma'nosi, boshqa bir leksema ma'nosiga aloqador bo'lgan semasi tahlil qilinadi. Yoki leksemalar o'zining determinant ma'nosiga ko'ra izohlanadi. Bunday holatda so'z biror boshqa leksemaning uslubiy bo'yoqdorligi kuchaytirilgan varianti bo'lib, ularda atash ma'nosi umumiy bo'ladi. Sanab o'tilgan bandlar so'zning semantik jihatini tahlil qilishda izohli lug'atlarda qo'llaniladigan yondashuvlardir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tafakkur fe'llarining bir qator umumiy semantik va sintaktik belgilari bor. Bu ma'no turiga oid fe'llarda asosiy atash ma'nosi ko'zga ko'rinmas, zamon chegarasi noaniq bo'lgan mavhum holatlarni anglatadi. Shuningdek, bu fe'llar nutq kontekstida ko'chma ma'noda qo'llanishi, mavjud ma'nosiga biroz o'zgarish kirishi bilan ajralib turadi. Grammatik jihatdan o'zbek tilidagi tafakkur fe'llari barcha zamonlarga ega. Ingliz tilidagi fe'llarning ba'zilarida davomiy zamonda qo'llanilmaslik cheklovi mavjud. Quyida tafakkur fe'llarining shu va boshqa xususiyatlari o'zbek tili izohli lug'atida qanday tahlil qilinganini ko'zdan kechiramiz.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da eng ko'p uchraydigan izohlash uslubi ma'nodoshlardan foydalanishdir. So'zning ma'nosini to'laqonli ochib berish uchun muallif uning ma'nosini imkon qadar to'liq qamrab olgan, kontekstual ma'no xususiyatlari ham o'xshash bo'lgan sinonimlarga murojaat qiladi. Bunday izohning eng katta yutug'i leksemaning ma'nosiga variantdosh, o'rindosh so'zlarni sanab o'tishidadir. Amaliy jihatdan qaraganda lug'at foydalanuvchisi matn tuzishda, tahrir yoki tarjima qilishda takrorlarni shu ma'nodoshlar orqali bartaraf qila oladi. Masalan, ushbu o'zaro ma'nodosh so'zlar izohida o'zaro takrorlarni ko'ramiz.

“Rejalashtirmoq – ma'lum rejaga solmoq; mo'ljallamoq”². “Islomxo'ja... yo'llarni tuzatish, temir ko'priklar qurdirish ishlarini rejalashtirdi”³.

¹ Денисов П. Об универсальной структуре словарной статьи // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М.: Русский язык, 1977; Гак В. Об относительности лексикологических категорий в лексикографии // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексике. – М.: Русский язык, 1978.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б. 370.

³ Шарипов Ж. Хоразм: роман. – Тошкент, 1965. – Б. 200.

Ushbu leksema izohi ayni o'zining biroz o'zgartirilgan so'z shakli va bitta sinonimdan tashkil topgan. Sinonimning o'zi hech qanday qiyosiy izohsiz keltirilganligi mualliflar bu leksemalarni o'zaro to'liq variantdosh/ma'nodosh sifatida taqdim qilayotganiga ishoradir. Misoldan anglashiladiki, bu so'z kontekstual polisemiyaga ega emas, birikuvda o'zining to'g'ridan-to'g'ri atash ma'nosini ifodalaydi. So'z ma'nosi biriuvda ham o'zgaraydigan mustaqil xarakterga ega.

“*Mo'ljallamoq*. 1. Oldindan o'ylab, ko'zlab qoymoq, belgilamoq, rejalashtirmoq”⁴. “Bir yilning ichida Ehson mo'ljallangandan ziyoda bilimga ega bo'lgan”⁵. “Avaz ko'pdan beri ... bu zaytun, mehnatkash to'da xususida bir she'r yozishni mo'ljallab qo'ygan edi”⁶.

“2. Biror maqsad uchun ko'zlamoq, munofiq topmoq, belgilamoq”⁷. “O'zini ... yashirish uchun qutidorning yo'lagini mo'ljallagan edi”⁸. “Direktor ... birinchi navbatda bu yil urug' ekiladigan yerlarni mo'ljallashi kerak edi”. (“O'zbekiston qo'riqlari”). “Madxoliqning buvisini sizga mo'ljallab quyuvdik, bu ham vafot topibdida”⁹.

“3. Chamalamoq, taxmin qilmoq”¹⁰. “Bog'ning sahnini Salim uch yarim tanob, Fazliddin uch tanob mo'lladi”¹¹.

“4. Nishonga olmoq, poylamoq”¹². “Bo'taboyning mqljallab otgan o'q Tillabuvaga tekkan ekan”¹³. “Ahmad tanbal bo'yni mo'ljallab urgan qilich Boburning yoy o'qlari solingan sabog'iga tegib, uni shartta kesib tushdi”¹⁴.

XULOSA

Rejalashtirmoq fe'lining ma'nodoshi *mo'ljallamoq* fe'lining izohi esa ancha keng. Bu leksemaning ma'no ko'lamini ancha kengligidan shu xususiyatiga ko'ra semantik tasnif iyerarxiyasida o'z sinonimidan yuqori turishini ko'rsatadi. Maqoladagi birinchi izoh sinonimlardan tashkil topgan. Izohga ilova qilingan misollar ushbu leksema neytral uslubiy semali tafakkur fe'li ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchi ma'no ham tafakkur semasiga ega, biroq rejalashtirishga nisbatan torroq birikuvlidir. Uning izohini *ikki predmet yoki ikki shaxs bir-birini to'ldiradigan, bir-biriga turli alomatlariga ko'ramos deb bilmoq* ko'rinishida kengaytirish kerak. Chunki bu izoh ham sinonimlarga asoslangan, birinchi va ikkinchi ma'no turlarini chalkashtirish, ularning farqini aniq ilg'ab olish qiyin. Uchinchi ma'noning izohi esa bu masalani yanada

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 668.

⁵ А.Қахҳор. Сароб: роман. – Тошкент, 1995. – Б. 100.

⁶ Сиёев С. Ёруғлик. – Тошкент, 1986.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 668.

⁸ А.Қодирий. Ўтган кунлар. – Тошкент, 1926.

⁹ Ниёзий Х.Х. Майсаранинг иши. – Тошкент, 1926.

¹⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 668.

¹¹ Ойбек. Танланган асарлар. – Тошкент, 1979. Ж. 3.

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 668.

¹³ А.Қахҳор. Қўшчиноқ чироқлари. – Тошкент, 1987.

¹⁴ Қодиров, Пиримқул. Юлдузли тунлар. – Тошкент, 1978.

murakkablashtirgan. Misoldagi o'Ichov birligidan uchinchi ma'no hisob-kitob qilmoq degan ma'noga yaqin turishi anglashiladi. Lekin izoh bu sema matematik sohaga yaqin ekanligini aniq ochib bermagan. So'zning to'rtinchi ma'nosi esa holatdan ko'ra fiziologik harakatga tayyorgallikni anglatishga yaqin. Ushbu maqolada *mo'ljallamoq* so'zining *rejalashtirmoq, mos ko'rmoq, hisoblab taxmin qilmoq va nishonni ko'zlamoq* ma'nolari mujassamlashgan. Lekin faqat shu oxirgi ma'no keng izohlangan va boshqa semalardan farqi aniq ko'zga tashlanadi. Maqolada so'z ma'nolari sinonimlar bilan talqin qilinganligi uchun turli semalarning farqi yaqqol ko'rinmaydi. Ular bir-birini to'ldiradigan, nega alohida ajratilgani tushunarsiz bo'lgan ma'nolardek qabul qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Денисов П. Об универсальной структуре словарной статьи // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М.: Русский язык, 1977; Гак В. Об относительности лексикологических категорий в лексикографии // Проблемы учебной лексикографии и обучения лексике. – М.: Русский язык, 1978.
2. Дорошевский В. Элементы лексикологии и семиотики. – М.: Прогресс, 1973. – С. 87.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев тахр. ост. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б. 370.
4. Rishatovna, Babaeva Komila, et al. "Modern foreign popular music as a means of teaching an english language to students of a non-linguistic profile." *International journal of psychosocial rehabilitation* 24.1 (2020): 1901-1905.
5. Abidova, Zilola Khabibullayevna. "Translation Problems of Verbs of Thought in Different System Languages." *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 2.2 (2023): 1-5.
6. Abidova Zilola Xabibullaevna. Ingliz tilida f'el va f'el kategoriyalari tadqiqi
7. Til o'qitish: yangi yondoshuv va innovatsiyalar. Toshkent sharqshunoslik Universiteti: 2022/5/10 pp.92-95
8. Saidakbarova, Saodat. (2022). Classification of English and Uzbek idioms depending on gastronomic codes. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. 12. 51-55. 10.5958/2249-7315.2022.00240.4.
9. Abidova, Zilola Xabibullayevna. "Ingliz va o'zbek tillaridagi tafakkur fe'llarining tahlili." *Scientific progress* 3.2 (2022): 736-739.
10. Абдуллаева, М. (2022). Инглиз–ўзбек бадий таржималарида муқобил вариантни шаклланиш ва ривожланиш босқичлари. *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы*, (1), 78-81.
11. Zilola Xabibullayevna Abidova. "Tarjimalarda tafakkur fe'llarini semantik darajalanish usullari." "Topical Challenges in teaching Foreign languages" 186-192.
12. Abidova Zilola Khabibullayevna. "Analysis of Tipological Classification of Languages." "Barqaror rivojlanish kontekstida xorijiy tillarni o'qitish: ilog'or tajribalar, muammolar va imkonoyatlar" (2): 152-157.